



Maxfuza MAMATOVA,
Qarshi davlat universiteti doktoranti, PhD
E-mail: maxfuzamamatova@gmail.com

UzMU dotsenti, PhD N.Vaisova taqrizi asosida

O'ZBEKISTONDA CHOY O'SIMLIGINI YETISHTIRISH TARIXIDAN

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekistonda choy o'simligini yetishtirish uchun qilingan sa'y-harakatlar arxiv manbalari, ommaviy axborot vositalari hamda manbalar asosida o'rganilgan. Unda XIX asr oxirida Turkiston general-gubernatorligida choy yetishtirish uchun Xitoydan choy o'simligi urug'lari va butalari keltirilganligi va ularni turli hududlardagi tajriba maydonlariga hamda mashhur savdogarlarga bo'lib berilganligi, ammo bu urinishlar besamara ketganligi yoritilgan. Shuningdek, XX asrning o'rtalarida O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan choyni yetishtirishga urinishlarning ikkinchi bosqichi boshlanib, bunda Toshkent va Samarqand viloyatlarida turli tajribalar olib boriladi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda choy yetishtirish bo'yicha Choyni rivojlantirish ilmiy-ishlab chiqarish markazi tashkil etilgan bo'lib, hukumat qarorlari asosida O'zbekistonni ham choy yetishtiruvchi mamlakatlar qatoriga qo'shish maqsadida turli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Kalit so'zlar: choy, Xitoy, Turkiston general-gubernatorligi, choy urug'lari, choy o'simligi butalari.

ИЗ ИСТОРИИ КУЛЬТИВИРОВАНИЕ ЧАЙНОГО РАСТЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье на основе архивных материалов, средств массовой информации и научных источников рассматриваются попытки возделывания чайного растения в Узбекистане. В ходе исследования установлено, что в конце XIX века на территории Туркестанского генерал-губернаторства с целью организации выращивания чая из Китая были завезены семена и саженцы чайного растения. Они распределялись по различным экспериментальным участкам, а также среди крупных торговцев. Однако из-за несоответствия климатических и агротехнических условий данные попытки не дали ожидаемых результатов. Кроме того, в середине XX века по инициативе Академии наук Узбекской начался второй этап исследований по выращиванию чая. В этот период в Ташкентской и Самаркандской областях проводились научно-практические эксперименты, направленные на адаптацию чайного растения к местным условиям. В годы независимости проблема выращивания чая в Узбекистане вновь приобрела актуальность. Был создан Научно-производственный центр развития чая, и на основе государственных программ реализуются различные проекты, направленные на включение Узбекистана в число стран-производителей чая.

Ключевые слова: чай, Китай, Туркестанский генерал-губернаторство, семена чая, кусты чайного дерева.

FROM THE HISTORY OF TEA CULTIVATION IN UZBEKISTAN

Annotation

This article examines the efforts to cultivate tea plants in Uzbekistan based on archival sources, mass media materials, and scholarly literature. The study reveals that in the late 19th century, during the period of the Turkestan Governor-Generalship, tea seeds and seedlings were imported from China in order to establish tea cultivation. These were distributed among experimental plots in various regions as well as to prominent merchants. However, due to unsuitable climatic and agro-technical conditions, these attempts did not yield successful results. Furthermore, in the mid-20th century, a second phase of tea cultivation research was initiated by the Academy of Sciences of the Uzbek SSR. During this period, experimental studies were conducted in the Tashkent and Samarkand regions, focusing on adapting tea plants to local environmental conditions. In the years of independence, the issue of tea cultivation in Uzbekistan regained significance. A Scientific and Production Center for Tea Development was established, and various projects are being implemented under government initiatives with the aim of including Uzbekistan among tea-producing countries.

Keywords: tea, China, Turkestan General Governorate, tea seeds, tea bushes.

Kirish. Rossiya imperiyasida choy savdosi eng katta foyda olib kelayotgan tovarlardan biri edi. XIX asrning ikkinchi yarmidan mamlakat choyni turli mamlakatlardan, jumladan Xitoy, Hindiston va Seylondan import qilar edi. Bu davrda Rossiya imperiyasi ulgurji choy eksport qiluvchi top ikkinchi davlatga aylanadi. Ushbu davrdan boshlab mamlakat hududida choy o'simligini yetishtirish uchun urinishlar boshlanadi, juda ko'p biolog olimlar Xitoy, Hindiston kabi mamlakatlarga choy plantatsiyalari ishini o'rganish uchun jo'natiladi va turli hududlarda tajribalar o'tkazila boshlanadi. Shunday tajribalardan biri Gruziyada o'tkazilib, XIX asrning 70-yillarida choy o'simligini yetishtirishni uddasidan chiqiladi.

Choy yetishtirish bo'yicha tajribalar Turkiston general-gubernatorligi hududida ham o'tkazilgan bo'lib, O'zbekistonda choy o'simligini yetishtirish uchun qilingan urinishlarni uch davrga bo'lish mumkin:

Turkiston general-gubernatorligi davrida (XIX asrning oxirlari)

O'zbekistonda sovetlar hukmronligi davrida (XX asrning o'rtalari)

Mustaqillik davrida O'zbekiston Respublikasida choy yetishtirishni yo'lga qo'yilishi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbekistonda choy yetishtirish sa'y-harakatlarining ushbu uch davri ham

arxiv hujjatlari va manbalariga tayangan holda o'rganilgan bo'lib, O'zbekiston Milliy arxivining I-1 fondi materiallari asosida yoritilgan. Shuningdek, "Okraina" gazetasi №134 (1893-yilning 26-noyabrda) sonida chop etilgan M.Smironovning "Наставление к разведению чайного дерева" maqolasida Turkiston general-gubernatorligi hududi choy yetishtirish uchun qulay hudud sifatida o'rganilganligi yoritilgan. Keying ikki davr turli manba va hukumat qarorlari asosida tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy tahlil, xronologik-sistemlashtirish, eksperiment va arxiv tadqiqot kabi metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda choy yetishtirilishining birinchi davrida, XIX asr oxirida Turkiston mintaqasining mustamlaka ma'muriyati mintaqada choy butalarini yetishtirishga uringan. Biroq, bu urinish bir nechta sabablarga ko'ra muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Samarqand shahrida chop etilgan "Okraina" gazetasi №134 (1893-yilning 26-noyabrda) sonida chop etilgan M.Smironovning "Nastavleniye k razvedeniye chaynogo dereva" maqolasida: "Xitoyda choy yetishtirish chegarasi 36° shimoliy kenglikda hisoblanadi, Yaponiyada esa choy hatto 40° kenglikda ham yetishtiriladi. Hindistonning choy yetishtiriladigan mintaqalarida o'rtacha yillik harorat dengiz sathidan 6900 fut balandlikda 10° dan 19° gacha o'zgarib turadi. Toshkentda o'rtacha yillik harorat dengiz sathidan 1520 fut balandlikda 12,02 - 14,08°C; Marg'ilonida 1480 fut balandlikda 12,09 - 14,08°C; Samarqandda esa 2190 fut balandlikda 13,02 - 14,08°C. Shunday qilib, mintaqadagi ekin maydonlarining o'rtacha harorati choy daraxtini yetishtirish uchun juda mos keladi" [4].

Choy butalarini yetishtirish uchun Turkiston mintaqasida qishda har bir qator ustida bir arshin balandlikdagi yo'lak qurilishi kerak. Yorug'lik kirishi uchun shift choy barglaridan, devorlar esa ikki tomonlama to'qilgan matodan yasalgan bo'lishi kerak. Ikkinchisi tashqi tomondan somon yoki qamish bilan qoplangan. Bu tartib kunduzgi va tungi haroratni muvozanatlashtiradi, shu bilan birga sovuq shamollardan himoya qiladi. Kunduzi harorat past bo'lgan joylarda bunday yo'laklar choy butalari ustida va plantatsiyalarning o'zida qurilishi kerak [4].

Geografik joylashuvi bo'yicha Turkiston viloyati choy yetishtirish chegarasi hisoblanadi. Toshkent 41° sh.k.dan yuqorida joylashgan. Chust va Namangan 41° sh.k.da joylashgan; Andijon, O'sh, Qo'qon, Marg'ilon, Xo'jand va Jizzax 41° dan 40° gacha shim.; Kattaqo'rg'on, Buxoro va Samarqand 40° dan 39° gacha shimolda joylashgan [4].

Kavkazda choy daraxti Qora dengiz qirg'oqlari bo'ylab juda yaxshi o'sadi va to'liq pishgan urug'larni beradi. Hozirda Batumi va Suhumi yaqinida shaxslar tomonidan xususiy choy plantatsiyalari tashkil etilgan [5].

Turkiston mintaqasi iqlim va tuproq sharoiti jihatidan Xitoyning choy yetishtiruvchi mintaqalariga biroz o'xshaydi. Yog'ingarchilikning yetishmasligi sug'orish kanallari bilan muntazam sug'orish orqali qoplanadi; haddan tashqari quruqlikning oldini olish uchun choy plantatsiyalarini katta daryo bog'lari yaqinida yoki sug'orish kanallari ko'p bo'lgan joylarda joylashtirish mumkin. Choy plantatsiyalarining yuqori rentabelligi qish oylari uchun yopiq yo'laklar yoki boshqa boshpanalar qurish orqali qishda kunduzgi va tungi haroratning keskin o'zgarishini yumshatish imkonini beradi.

N.Smironovning fikriga ko'ra, Turkiston mintaqasida choy yetishtirish asosan kichik fermerlar tomonidan, yozgi sanoat sifatida amalga oshirilishi kerak. Bu aholining farovonligini oshiradi. Biroq, yangi o'simlikni yetishtirish bo'yicha birinchi tajribalar davomida namunali choy

plantatsiyalarini saqlashga katta mablag' sarflashga qodir bo'lgan boyroq egalarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir [5].

Turkiston general-gubernatori N.O.Rozenbaxning (1884-1889) iltimosiga binoan, Xitoyning Xankou shahridagi Rossiya imperiyasi konsulligi Turkiston mintaqasida choy butalarini yetishtirish maqsadida 16 quti choy urug'ini yubordi. Urug'lar 1896-yil 1-martda Xankoudan Shanxayga dengiz orqali jo'natildi va o'sha yilning avgust oyi oxirida Toshkentga yetib keldi [2].

Xitoydan yuborilgan choy urug'lari ikki partiyaga bo'linib, qadoqlandi. Bir partiya Moneyning mashhur "Hindistonda choy yetishtirish" asarida tasvirlangan usulga muvofiq qadoqlandi. Urug'lar mayda maydalangan ko'mir qatlamlari orasiga, qog'oz varaqalar orasiga joylashtirildi. Ikkinchi partiya esa keng tarqalgan xitoy usuliga muvofiq, quruq, elangan loy shaklida qadoqlangan edi [2].

Toshkentda davlat tomonidan berilgan 11 quti choy urug'i qabul qilindi va sinov plantatsiyasida sinovdan o'tkazish va Turkiston mintaqasining turli joylariga tarqatish uchun tarqatildi.

Choy urug'lari quyidagicha taqsimlanadi: 2 quti Toshkent tajriba plantatsiyasiga, 1 quti Marg'ilon va Samarqand davlat bog'lariga, 1/2 quti Qo'qon, Namangan, Andijon, O'sh, Xo'jand, Kattaqo'rg'on va Jizzax tumanlari boshlig'iga, 1 quti Amudaryo boshqarmasi boshlig'iga, 1 quti savdogar Filatovga (Samarqandda), 1/2 quti janob Sirkovga (Qo'qonda), janob Grebnerga (Samarqandda) va janob Brezgunovga (Marg'ilonida) yuboriladi. [2].

Shu bilan birga, arxiv ma'lumotlariga ko'ra, yuqorida tilga olingan urug'lar partiyasining ba'zi qutilari Xitoydan tashqarida choy butalarini muvaffaqiyatli yetishtirishga halaqit berish uchun xitoyliklar tomonidan qaynoq suv bilan kuydirilgani haqida mish-mishlar tarqalgan edi [2].

Bundan tashqari, Farg'ona viloyati rahbari ushbu qutilardan to'rtta quti choy urug'i Toshkentdan Marg'ilonga yetkazib berilganini xabar qiladi hamda ushbu qutilarni ochganda, ulardan ikkitasidagi urug'lar qog'ozga o'ralganligi va keyin tuproq sepilganligi aniqlandi. Bu qutilardagi tuproq butunlay quruq edi, ichidagi choy urug'lari esa qisman chirigan va qisman qurib qolgan edi va bu ikki qutida ekishga yaroqli birorta ham urug' topilmagan. Keyingi ikkita qutida ikkita banka bor edi, ulardan biri mahkam yopilgan edi. Birinchi bankada, mahkam yopilgan holda, choy urug'lari asosan chirigan edi, faqat oz qismi butunlay quruq edi. Ikkinchi bankada, istisnosiz, barcha urug'lar chirigan edi [3].

O'zbekistonda choy yetishtirishning ikkinchi davri XX asrning o'rlarida boshlandi. H.Qoraboyevning tadqiqatlariga ko'ra, 1947-yildan beri akademik R.R.Shreder nomidagi Meva va sabzavot yetishtirish ilmiy-tadqiqot instituti choy o'simliklari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Choy o'simliklari dastlab uchta hududda yetishtirilgan: Parkent tumanida (Parkent tog'lari), Samarqand viloyatining Amanqoton tog' o'rmonlari va Surxondaryo viloyatidagi Topalang daryosi etaklarida [6].

Birinchi yilda o'simliklar normal o'sa boshladi, balandligi 7-12 sm ga yetdi. Biroq, ikkinchi yilga kelib o'simliklar o'sishdan to'xtadi va deyarli barchasi qurib qoldi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi choy o'simliklarini yetishtirish uchun mos joylarni topish vazifasini qo'yadi va R.R.Shreder nomidagi Meva va tuproqshunoslik instituti xodimlari maxsus ko'p tarmoqli ekspeditsiya tashkil qilishdi. 1950-yilda ushbu ekspeditsiya O'zbekistonning ikkita tog'li hududida: Topalang daryosi havzasida va Samarqand viloyatidagi Oqqo'rg'on tog'larida tuproqni o'rganish ishlarini olib bordi [6].

1951-yilda O'zbekistonning boshqa mintaqalarida choy yetishtirish uchun mos joylarni qidirish boshlandi va o'sha yili

Kuramin tog'larining shimoliy etaklarida (Angren daryosining chap qirg'og'i) choy yetishtirish uchun eksperimental geografik mintaqa tashkil etildi. Keyinchalik yana uchta geografik mintaqada tajriba uchastkalari tashkil etildi: 1952-yilda Temny Dyadya daryosida (Angren daryosining chap qirg'og'i) va Yertosh qishlog'ida, 1953-yilda Oblik qishlog'ida [6].

O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, professor E.P.Korovinning umumiy rahbarligida va institutning subtropik o'simliklar bo'limi boshlig'i M.A.Xudzinskiyning bevosita ishtirokida 1954-yilgacha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borildi [6].

1951-54-yillarda O'zbekistonda choy yetishtirish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, Krasnodar va Ozarbayjon choylarini ommalashtirish ijobiy natijalar bergan, ammo gruzin choyini yetishtirish sezilarli ijobiy natijalar bermagan.

O'zbekistonda choy yetishtirishning uchinchi davrida, 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Choy ishlab chiqarishni tashkil etish va aholini yuqori sifatli choy va mahalliy ishlab chiqarilgan choy mahsulotlari bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi yangi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada ko'paytirish, importni kamaytirish, choy yetishtirish va choy ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish hamda aholini yuqori sifatli choy va mahalliy ishlab chiqarilgan choy mahsulotlari bilan ta'minlashga qaratilgan [1].

Choy sanoatini amalga oshirish uchun ilmiy muassasalar, fermer xo'jaliklari va tadbirkorlar ishtirokida mas'uliyati cheklangan jamiyat sifatida Choy ishlab chiqarishni rivojlantirish ilmiy-ishlab chiqarish markazi tashkil etildi. Markaz 2018-yilda xitoylik hamkorlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan.

Markazning asosiy faoliyati quyidagilardan iborat bo'lib, birinchidan, choy urug'lari va ko'chatlarini sotib olishni va ularni fermer xo'jaliklari va tadbirkorlarga yetkazib berishni tashkil etish; ikkinchidan, mamlakat iqlimi va boshqa

sharoitlarini hisobga olgan holda choy yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish, sanoat choy plantatsiyalarini yaratish va choy ishlab chiqarish hajmini bosqichma-bosqich oshirish; uchinchidan, zamonaviy sanoat choyini qayta ishlash va qadoqlash liniyalarini joriy etish; to'rtinchidan, xorijiy mamlakatlarga eksport qilish uchun yuqori mahsulot sifatini saqlab qolish maqsadida marketing tizimini ishlab chiqish; beshinchidan, tajriba almashish, choy yetishtirish va choy ishlab chiqarishga tasdiqlangan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish maqsadida butun dunyo bo'ylab choy ishlab chiqaruvchilari bilan keng ko'lamli xalqaro aloqalarni o'rnatishdan iborat.

Hozirda ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun Choyni rivojlantirish ilmiy-ishlab chiqarish markaziga Jizzax viloyatining Zomin tumanida urug'larni yig'ish va choy ko'chatlarini ekish uchun yer uchastkalari ajratildi. Choyni qayta ishlash va ishlab chiqarish zavodi Toshkentda joylashgan. Choy mahsulotlarini qayta ishlash va qadoqlash uchun zamonaviy uskunarlar o'rnatildi va choy barglarini qayta ishlash va qadoqlash uchun foydalanilmoqda.

Markazning asoschilari "O'zbekoziqovkatxolding" xolding kompaniyasi, "Bay Tea Group" MCHJ, "BMB Trade Group" MCHJ va choy ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklari hisoblanadi. Markaz faoliyati pullik xizmatlardan olinadigan daromadlar va qonun bilan taqiqlanmagan boshqa manbalarni o'z ichiga olgan holda o'z xo'jalik faoliyati hisobidan moliyalashtiriladi [1].

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, O'zbekistonda choy yetishtirishga urinishlarning birinchi ikki davrida bu muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Birinchi davrda choy ko'chatlari qurigan va so'lib qolgan, urug'lari esa chirigan bo'lsa, ikkinchi davrda choy bo'talari ekildi, ammo ikkinchi yili qurib qoladi. Hozirgi kunda esa O'zbekistonda choy plantatsiyalari Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Toshkent va Farg'ona viloyatining tog'li hududlarida ekilib, yapon choyi navlarini ekish ommalashtirilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Choy ishlab chiqarishni tashkil etish va aholini yuqori sifatli choy va mahalliy ishlab chiqarilgan choy mahsulotlari bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 30-iyundagi 490-sonli qarori. // <https://lex.uz/docs/-3804160>
2. O'z MA, f. I-1, 29-ro'y., 971-ish, 4-5-17-18-qog'ozlar.
3. O'z MA, f. I-1, 29-ro'y., 24796-ish, 1-3-qog'ozlar.
4. Смирнова М. Наставление к разведению чайного дерева. // «Окраина» журналі, №134, 26 noyabr (8 dekabr) 1893 yil, 1-b.
5. Смирнова М. Наставление к разведению чайного дерева (davomi). // «Окраина» журналі, № 135, 29 noyabr (11 dekabr) 1893 yil, 2-3 betlar.
6. Қорабоев Х. Ўзбекистонда чой. – Т.: Ўзбекистон КП МК бирлашган нашриёти, 1968. – Б. 4-6.